



Tutuq belgisining
ishlatilishi. Yonma-yon
kelgan undoshlar imlosi

' - tutuq belgisi (apostrof)

- ▶ O'zbek tilida tutuq belgisi arab tilidan o'zlashma so'zlarga quyidagi hollarda qo'yiladi: a) unli tovushdan keyin kelganda o'sha unlini cho'ziqroq talaffuz etilishini bildiradi. Ma'no, ra'no, ma'naviyat kabi;
- ▶ b) undoshdan keyin kelib, o'zidan keyingi bo'g'inning ajratib talaffuz etilishini ko'rsatish uchun: mash'al, sur'at, jur'at kabi.



► Yozuvda faqat tutuq belgisi bilangina farq qiladigan soʻzlar uchraydi: saʻva – sava, qalʼa – qala kabi. Bunday soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etmaslik maʼnoning oʻzgarishiga olib keladi.




► Мўътабар, мўъжаз, мўъжиза, мўътадил kabi soʻzlarda ketma-ket tutuq va koʻchish belgilarini qoʻymaslik uchun tutuq belgisidan voz kechilgan. Bu soʻzlar lotin yozuvida moʻtabar, moʻjaz, moʻjiza, moʻtadil kabi yoziladi.

Ruscha o‘zlashma so‘zlarda tutuq belgisi

- ▶ Адъютант, подъезд, съезд, субъект, объект kabi so‘zlarda lotin yozuvida tutuq belgisi qo‘yilmaydi. Bunday so‘zlarda ayirish belgisidan keyin keladigan yoolashgan tovushlar har doim harflar birikmasi shaklida yoziladi: adyutant, syezd, subyekt, obyekt kabi.

Yonma-yon kelgan undoshlar imlosi

- ▶ Nutqda har xil undosh tovushlarning qator kelishi bilan birga, bir xil undoshlarning qator-qo'shaloq holda qo'llanishi ham uchraydi. Qo'sh undoshlar, odatda, o'zbek tilida so'z o'rtasida keladi: muqaddas, muammo, yetti, sakkiz kabi;
- ▶ rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda esa so'z oxirida ham: gramm, kilovatt kabi;
- ▶ ayrim Yevropa va Afrika xalqlarining tillarida hatto so'z boshida ham kelishi mumkin: Lloyd, Nnyanzi familiyalaridagi kabi.

- 
- ▶ Og‘zaki nutqda so‘z o‘rtasida ba‘zan qo‘shaloq undoshlardan biri talaffuz qilinmasa-da, yozuvda to‘liq saqlanadi: hamma – hama, komissar – komisar kabi.
 - ▶ Talaffuzda qo‘sh undoshlardan birini aytmaslik adabiy nutq me‘yoriga ziddir. Chunki bu ba‘zan so‘zning lug‘aviy ma‘nosiga ta‘sir ko‘rsatishi ham mumkin: sodda – soda, billur – bilur, yalla – yala, modda – moda kabi.
 - ▶ Qo‘sh undoshlar ba‘zan so‘z oxiridagi undoshdan keyin shu undosh bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shilganda ham hosil bo‘lishi mumkin: yurak + ka, barg + ga, qishloq + qa kabi.